




2019-yilning yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalaridan 4789,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2,9% ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 90,5% ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 5,0% ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 1,6% ga o'sishi hisoblanadi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

 Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	 Ishlab chiqaradigan sanoat
hajmi 138,7 mlrd.so'm	hajmi 4333,9 mlrd.so'm
ulushi 2,9 foiz	ulushi 90,5 foiz
hajmi 241,6 mlrd.so'm	hajmi 75,3 mlrd.so'm
ulushi 5,0 foiz	ulushi 1,6 foiz
 Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 138,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 333,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,5 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulush to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda (27,4 %) kuzatildi. Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,7 %ni, boshqa nometal meniral mahsulotlar ishlab chiqarish 12,5 %ni, kiyim ishlab chiqarish 6,8 %ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

2019 yil oxirgi oylarida sanoatning ishlab chiqarish indeksi, % da





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019 yil yanvar-dekabr oylarida	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda
51 470,0	Paxta chigiti, t.	81,2
21 853,3	Paxtadan yigirilgan ip, t.	2,6 m
58 965,0	Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	103,0
600,8	Trikotaj yoki qulda to'qilgan ustki kiyimlar, ming dona	53,1



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-dekabr oylarida	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda
9 286,1	O'simlik yog'l (tozalangan), t.	72,7
32 268,0	Paxta tolasi, t.	78,3
801,9	Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo'rg'oshinli akkumulyatorlar, ming dona	109,5
2 259,0	Mashinada yoki qo'lda tuqilgan trikotaj polotnolar, t.	133,8
2 775,0	Paxta linti, t.	74,1

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


2019 yilning yanvar-dekabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 241,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,0 %ni) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 111,4 % ni tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 75,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 %ini) tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-dekabr oylarida chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish hajmi jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 1,1 % ni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash esa 0,4 % ni tashkil etdi.






JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat hajmi, mlrd.so'm




Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da




Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-dekabr oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 4 789,5 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,8 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarish indeksi, % da




Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ortishi natijasida jami sanoatda hududlarning ulushi sezilarli oshmoqda. Bunda eng yuqori ulush Jizzax shaxrida (51,2 %) kuzatildi. Shu bilan birgalikda, Do'stlik (11,1%), Paxtakor (6,2%), Sh.Rashidov (5,9%) va Zomin (6,1 %), tumanlarida ham nisbatan yuqori ulushni ko'rish mumkin.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'рни, % da




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2 277,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,3 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 47,5 % ni tashkil etdi.




2018 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 68,4%dan 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 69,7 %ga ko'paygan.



Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 3 503,1 ming so'mni tashkil etdi. Jumladan, Jizzax shahrida 13 942,1 ming so'mni, Do'stlik tumanida 8 204,9 ming so'mni, Paxtakor tumanida 4 002,6 ming so'mni, Arnasoy tumanida 3 011,5 ming so'mni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari, ming so'm




Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1 yanvar holatiga sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan 105 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1183,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 24,7% ni tashkil etdi.

Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'mda




Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi sanoat korxonalarining umumiy sanoat hajmidagi ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik sub'yektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 3 185,3 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 66,5 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissi, % da




Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Viloyatda 2020 yil 1 yanvar holatiga 2 787 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 949 tasi Jizzax shaxrida, 601 tasi Sharof Rashidov, 254 tasi G'allaorol, 219 tasi Zomin, 115 tasi Forish, 108 tasi Zarbdor, 100 tasi Paxtakor, 98 tasi Do'stlik, 85 tasi Baxmal, 78 tasi Mirzacho'l, 98 tasi Zafarobod, 55 tasi Arnasoy va 46 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

2020 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda



2020 yil 1 yanvar holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda



2019 yil yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarish


RAQAMLAR:

- Mahalliyashtirish dasturidagi loyihalar soni 33 ta
- Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 461,7 mlrd. so'm.
- Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport hajmi 4,7 mln. AQSH.dollar

2019-yil yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi doirasida 33 ta loyiha bo'yicha 461,7 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 4,7 mln. AQSH.dollarlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 472 ta yangi ish o'rni yaratildi.


Ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi.(mlrd so'mda.)

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida mahalliyashtirish dasturi bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 461,7 mlrd.so'm tashkil qildi. 2018 yilning tegishli davri bilan solishtirganda nominal indeks 3,6 martani tashkil etdi. O'z navbatida 2019-2018 yillarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni hajmini quyidagi diogrammada ko'rishimiz mumkin.



2019 yil yanvar- dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari


2019 yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi bo'yicha 33 ta loyiha (461,7 mlrd. so'mlik mahsulot) amalga oshirigan. Bunda Jizzax shahrida 25 ta (390,0 mlrd. so'm), Gallaorol tumanida 3ta (18,2mlrd.so'm), Zomin tumanida 2ta (23,2mlrd.so'm), Forish tumanida 1ta (29.2 mlrd.so'm) korxonalar tomonidan mahsulotlar ishlab chiqarilgan.




2019 yil yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksporti, ming AQSH dollarda

Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksporti ham 2018 yilning tegishli davri bilan solishtirganda 4704,1 ming. AQSH. dollarga oshishi kuzatildi. O'z navbatida, eksportning eng ko'p qismi Jizzax shahri (4681,3 ming. AQSH. dollar) hissasiga to'g'ri keladi.

Shu bilan birga mahalliyashtirish dasturi doirasida joriy yilda 472 ta yangi ish o'rini yaratildi.



2019 yil yanvar-dekabr oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasidagi loyihalarni amalga oshirgan korxonalar soni, birlikda



Sanoat statistikasi bo'limi
telefon: (71) 230-83-47